

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR  
PREZIDENT MAKTABLARI MISOLIDA. PREZIDENT  
MAKTABLARIDAGI YANGI TA’LIM METODLARI**

*Sunnatillo Ismoilov*

*Toshkent shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta‘lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e‘tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta‘lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta‘lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim islohotlari, Prezident maktablari, metod, texnologiya.

Ta‘lim sohasidagi islohotlar uchun davlat budjetidan xarajatlar so‘nggi 6 yilda **4,3** baravarga oshirildi, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 2016-yildagi **5 211** tadan 2021-yilga kelib **19 316** taga, maktablar soni **9 719** tadan **10 289** taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta‘limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta‘lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb **4 baravarga** oshirildi, OTM soni **70 tadan 191 taga** yetkazildi, oliy ta‘limdan keyingi ta‘limning ikki pog‘onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta‘lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta‘lim bilan qamrov darajasi **27,7 foizdan 67 foizga**, maktablardagi malakali oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar ulushi **81,8 foizdan 87,8 foizga**, yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi **9 foizdan 38 foizga** yetkazildi. Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta‘limda qamrov darajasini hozirgi **67 foizdan 80 foizga** yetkazish, **7 mingdan** ziyod yangi nodavlat MTTLarni tashkil etish, xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha **1,2 million** o‘quvchi o‘rnini yaratish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o‘quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko‘zda tutildi. Shuningdek, oliy ta‘limda qamrov darajasini **50 foizga**, nodavlat OTMlar sonini kamida **50** taga yetkazish belgilab olindi. Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo‘lishini ta‘minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta‘lim olishga bo‘lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Shuni inobatga olgan holda, yangilanayotgan Konstitutsiyada ilk marotaba bog‘cha yoshidagi bolalarning ta‘lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining joriy etilishi, bolaning o‘rta ta‘lim olishi majburiyligi va davlat tomonidan bepul ta‘minlanishi, fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishi kabi qo‘shimchalar bilan to‘ldirilmoqda.

Ta‘lim sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlari nazarda tutilgan bo‘lib, ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta‘lim berish sifatiga e‘tibor berish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘liq. O‘qituvchi ilm-fan sirlari, ma‘naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Demak, o‘qituvchilarga o‘zlarining salohiyatini to‘liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo‘llab-quvvatlash darkor.

Shu bois, Konstitutsiyaga o‘qituvchining jamiyatdagi maqomiga bag‘ishlangan alohida modda kiritilmoqda. O‘zbekistonda o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etilishi mustahkamlanmoqda. Davlatning o‘qituvchilar sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi nazarda tutilmoqda. O‘z navbatida, mazkur yangilik mamlakatda faoliyat yuritayotgan 685 mingdan ortiq pedagogning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish va kasbiy o‘sishini ta‘minlash imkoniyatini yaratadi.

Metod so‘zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir. Metod - eng umumiy ma‘noda - maqsadga erishish usuli, ma‘lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir. Metodlarning asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o‘z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo‘ladi. Ta‘lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisi tushuniladi. Ta‘lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining o‘zaro tutashuvi, o‘qitish va o‘qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa

shakllarda namoyon bo‘lmaydi, buning boisi ta’lim metodi o‘zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi. Didaktikada, shuningdek, ta’lim usullari atamasi ham keng qo‘llanadi. Ta’lim usuli deganda, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi- talaba faoliyatining qanday bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Ta’lim usuli - ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. O‘qituvchilarning ayrimlari esa, «metod» tushunchasining o‘rniga «uslub» tushunchasini ham qo‘llaydilar. Ammo «uslub» tushunchasi «metod» atamasining mohiyatini o‘zida to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko‘proq xususiy (so‘z borayotgan holatda aynan o‘qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo‘lib, aniq maqsadga erishish yo‘li sifatida xizmat qila olmaydi. Didaktik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ta’lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog‘liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to‘xtalamiz. Demak, ta’lim metodlari quyidagicha tasniflanadi: 1. An’anaviy ta’lim metodlari: og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, kitob bilan ishlash va video metodlari. 2. O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari: Axboriy-retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon etish, evristik (qisman izlanish), tadqiqotchilikka doir. 3. Asosiy didaktik maqsadlarga ko‘ra ta’lim metodlari: a) yangi bilimlarni egallash; b) ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; d) bilimlarni amaliyotda qo‘llash. 4. Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari: a) bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari; b) o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari; d) o‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlari; c) o‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari. 5. Interfaol metodlar va grafik organayzerlar. a) o‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari; b) yangi materialni anglash metodlar; d) o‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar. Ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda ko‘rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, didaktikada alohida o‘rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko‘rinishlari - chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishni taqozo etadi. Namoyish (demonstratsiya) metodi o‘rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda, odatda uning tashqi ko‘rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari)ga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini

o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekt yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Amaliy metod - o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar - maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi. Ta‘lim metodlari ta‘lim vositalari bilan birgalikda qo‘llaniladi. Ta‘lim vositalari - bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta‘lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta‘limning barcha vositalari ta‘lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Ta‘lim vositalari o‘zida o‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy yoki ma‘naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta‘lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq, agar metodlar «qanday o‘qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida nimani o‘qitish» savoliga javob beradi. An’anaviy ravishda qo‘llaniladigan ta‘lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o‘quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi. Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Didaktik vositalar metodlar singari ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audiovizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta‘lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi. Ta‘lim vositasini tanlab olish ta‘lim metodini tanlash bilan bog‘liq. Agar ta‘limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ta‘limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta‘limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta‘lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo‘lishi mumkin emas. Ta‘lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo‘llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. Q‘qituvchining vazifasi - dars jarayonini faollashtirish uchun ta‘limning samarali vositasini tanlab olishdir. Ta‘lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin:

- faoliyat subyektiga ko‘ra;
- faoliyat obyektiga ko‘ra;
- o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra;
- o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra.

Ta‘lim metodining o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlanishi, dars jarayonida turli vositalar yordamida mavzuning tushuntirilishi ta‘lim sifatining oshishiga yordam beradi. Yuqorida ko‘p bora ta‘kidlab o‘tilganidek, ta‘lim metodlarini malakali

o‘qituvchining usuli bilan birlashishi natijasida fanning va o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni va o‘ziga xosliklari to‘liq ochib beriladi. Bu esa o‘quvchilarning fan yuzasidan bilim, ko‘nikma, malaka kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishiga asos vazifasini o‘taydi.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh M “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi “Xalq so‘zi” gazetasi 2018-yil 8-dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-4958 sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori 2020-yil 6 noyabr
4. Xaliqulova H O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish borasida xalqaro hamkorlik. 2020.